

JAMSHIDBEK RUSTAMOV
KUTUBXONASI

BADIIY
SAN'ATLAR
(qisqacha ma'lumotnoma)

2016-YIL

BADIIY SAN'ATLAR

ALLEGORIYA (MAJOZ)- ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqea-hodisa yoki narsa buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz)ni qo'llash, ya'ni adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgannarsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli.

Masalan: **tulki-ayyor va aldamchi kishi**

Bo'ri-ochko'z va boshqalar

ANAFORA (TAKROR)-misralar boshida bir so'zning aynan takrorlanishi

Shag'irlaydi betinim daryo

Shag'irlaydi vahm to'lgan jar

ALLITERATSIYA (TAVZE)- tovushlar ohangdoshligi

Qaro **q**oshing, **q**alam **q**oshing,

Qiyiq **q**ayrilma **q**oshing, **q**iz.

Qilur **q**atlimga **q**asd,**q**ayrab

Qilich **q**otil **q**aroshing, **q**iz...

ASSONANS-misra, baytda unlilar takrori

Omon, omon, omon-ey

Zamon-bizning zamon-ey

EPIFORA-misra oxirida tovush, so'z, iboraning takrorlanishi.

Kulgan boshqalardir, yig'lagan **menman**,

O'ynagan boshqalar, ingragan **menman**.

HARF SAN'ATI (KITOBAT)-arab harflaridan foydalanish

Nigoro, bori g'am birla faqiri notavon aylab,

<<**Alif**>>dek qomatimni <<**lom-alif**>> yanglig' duto qilding

HUSNI TA'LIL (chiroyli dalillash)

Tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona sabab ko'rsatish, biror voqeani unga dahli bo'lmagan boshqa hodisa bilan izohlash.

Nozuklik ichra yo'q tori gisuyi

O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi

IYHOM-shubhaga solish, adashtirish

Ulus ichinda turur **o'z begim** qiyo ko'zluk,
Xayoli **to'qtamish** andin ko'ngul saroyinda.

O'ZBEGIM-o'zimning begim

O'zbekim (bu yerda **xalq** ma'nosida ishlatilgan)

To'qtamish va **saroy** so'zlarida ham shu xususiyat bor

IQTIBOS-she'r yoki nasrda qur'oni karim yoki xadisdan parcha keltirish

<<Al xayou min al-ymon>>, - Rasul aydi.

IRSOLI MASAL-baytda maqol, matal, hikmatli so'z keltirish

Ayoqingga tushar har lahza gisu,

Masaldurkim: **<<Charog' tubi qorong'u>>**

ISTIORA (METAFORA)-omonatga olish

O'xshashlik asosida bir narsaning nomini ikkinchi bir narsaning nomiga ko'chirish.

Sen ey **gul**, qo'ymading sarkashligingni

GUL-MASHUQA

ISHTIQOQ-so'zdan so'zni ajratish

Baytda o'zakdosh so'zlardan foydalanish.

Ganja vatan, ko'ngli oning **ganjhez**,

Xotiri **ganjuru** tili **ganjrez**.

JONLANTIRISH

A) TASHXIS-shaxslantirish

Jamoling vasfini qildim chamanda,

Qizordi gul uyattin anjumanda

B) INTOQ-gapirtirish

Bunda qorning taglarida qish,

Bahor uchun so'zlaydi olqish

C) LITOTA (TAFRIT, IFROQ)

O'ta zaiflashtirish, kichraytirish

Ul sanamkim suv yaqosida paritek o'lturur

G'oyati nozikligidin suv bila yutsa bo'lur

METONIMIYA-o'zaro yaqinlik, aloqadorlik asosida ma'no ko'chishi

Fuzuliyni oldim qo'limga,

Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi

MUBOLAG'A (GIPERBOLA)-bo'rttirish, lof urish

- a) **TABLIG'**-tasavvur qilish mumkin, yuz berishi ham mumkin.
Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi
Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi
- b) **IG'ROQ**-tasavvur qilish mumkin, yuz bermaydigan yolg'on
Otlar kishnar, qizlar kuylar, **tinmay ishlar dehqonlar,**
Quyosh oltin buloqdir, qaynar, toshar...Ko'k tiniq
- c) **G'ULUVV**-aql ham ishonmaydi, hayotda ham yuz bermaydi.
Vah, muhabbat ko'yida **qon yig'ladim,**
Yetti iqlim g'arq bo'ldi yoshima

MUKARRAR-muayyan so'z muayyan o'rinda takrorlanib keladi

Yuzung mus'hafi sharhi o'lg'ay necha-
Kitob-u kitob-u kitob-u kitob

MULAMMA'-turli tillarda she'r yozish.

Qochib ketdi machchoyilar aksari,
Borib shulki yurtiga ta'kidlari:

- a) **SHIRU-SHAKAR**-2 tilda
- b) **SHIRU SHAHDU SHAKAR**-3 tilda

MUSAJJA'-baytning ichki qofiyaga ega bo'lishi.

Xatti aro **uzoring** sabza ichida **dola**
Ul chashmi **nurxumoring** doladagi **g'azola**

MUSOVIYATTARAFAYN- 2 tomonlama teng

Ul sho'xki	ochildi	xat-u	ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man man
Ruxsori	gulnori	man man	zori

OKSIMORON-ijobiy va salbiy ma'noli so'zni yonma yon keltirish

Bir yo'qlamaysan kuygan kulingni
Ko'zlari **jallod,** **nozik** niholim

QAYTARISH SAN'ATI (RADD)

<u>SADR</u>	<u>HASHV</u>	<u>ARUZ</u>
<u>IBTIDO</u>	<u>HASHV</u>	<u>AJUZ</u>

1) Radd-us-sadr ilal-hashv (bayt boshidagi soʻzning misra oʻrtasida kelishi).
Gunah qildimki hajringda tirildim,
Vale mendin gunah, sendin karamdur. (Atoiy)

2) Radd-us-sadr ilal-ibtido (bayt boshidagi soʻzning ikkinchisi misra boshida kelishi):
Husnni to huvaydo qildi xoliq,
Husn birla vafo boʻlmas muvofiq. (Xorauniy)

3) Radd-us-sadr ilal-ajuz (sadrning ajuzda takrorlanishi):
Uqush boʻlsa asgʻi edi-oʻq oʻkush,
Qamugʻ edgʻulik ulgi-ul bu uqush.

4) Radd-ul-hashv ilal-ibtido (birinchi misra hashvidagi soʻzning ibtido sifatida takror kelishi);
Qali edguka boʻlsa, esiz eshi,
Esiz boldi qilqi ul esiz tushi.

5) Radd-ul-hashv ilal-hashv (birinchi misraning oʻrtasidagi soʻzning keyingi misra ichida qaytarilishi):
Ul sanamkim suv yaqosinda paridek oʻltirur,
Gʻoyati nozuklukindin suv bila yutsa boʻlur. (Atoiy)

6) Radd-ul-hashv ilal-ajuz (misra ichidagi soʻzning keyingi misra oxirida kelishi).
Ula nang kishika yeturham ichur,
Seni nang kechurgay, ani sen kechur.

7) Radd-ul-aruz ilal-ibtido (birinchi misra oxiridagi soʻzning keyingi misra boshida kelishi):
Atoiyini agar olamgʻa sotsang,
Sot, ey zohidki, ul xublar qulidur.

8) Radd-ul-aruz ilal-hashv (birinchi misra oxiridagi soʻzning keyingi misra ichida ham kelishi):
Nektu ter eshitkil kur erdamlug er,
Bu erdam bila er tilak arzu yer.

9) Radd-ul-aruz ilal-ajuz (birinchi misra oxiridagi soʻzning bayt oxirida ham kelishi):
Kitobat boshladim anjoma yetqay,
"Muhabbatnoma" Misr-u Shoma yetqay. (Xorazjmiy)

10) Radd-us-sadr ilal-aruz (bayt boshidagi soʻzning birinchi misra oxirida kelishi):
Jamolingtek kishining yoʻq **jamoli**,
Daregʻo, boʻlmasa erdi zavoli. (Xorazmiy)

11) Radd-ui-ibtido ilal-hashv (ikkinchi misra boshidagi soʻzning shu misra oʻrtasida kelishi):
Boʻyung sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilgʻon kishilarga **vafo** qil. (Xorazmiy)

12) Radd-ul-ibtido ilal-ajuz (ikkinchi misra boshidagi. soʻzning bayt oxirida kelishi):
Bu dunya ishi koʻr oʻyun-ul oʻyun,
Oʻyunqa qatilma nerak bu **oʻyun**.
(Bu dunyo ishini koʻr, (u) nayrangdir, nayrang, Nayranggo aralashma, bu nayrang nega kerak.)
(Yusuf Xos Hojib)

RADD UL MATLAʼ -gʻazaldagi birinchi misrani gʻazalning oxirida takrorlash
Qoshi yosinmu deyin, koʻzi qarosinmu deyin **(1-14-qator)**

RUJU -qaytish
Meni ishqdin manʼ etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim, loda shayx.

SAJʼ -nasrdagi qofiya
Koʻproq xalq dostonlarning nasriy qismida saj usulidan foydalaniladi.
Soladi, oladi, qoladi

SIFATLASH (EPITET) -narsa, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi soʻzni qoʻllash.
Kumush qishdan, **zumrad** bahordan
Qolishmaydi kuzning ziynati.

TAʼDID (TAʼZIL, SHUMUR, EʼDOD, TEʼDOD) – ketma ketlik tadrijiylik asosida fikrni yuzaga chiqarish.
Tilingni koʻdazgil, koʻzingni koʻdaz,
Boʻgʻuzni koʻdazgil, halol, yegil az.

TAJNIS (JINOS) -baytda omonim soʻzlardan foydalanish.
Boʻyung sarv-u sanubartek, beling **qil**
Vafo qilgʻon kishilarga vafo **qil**

TAZJIYA -boʻlak-boʻlak qilmoq
Bayt misralarining har birini ikki boʻlakka ajratib, misralardagi birinchi boʻlaklarni ham, ikkinchi boʻlaklarni ham oʻzaro qofiyalash sanʼatidir.
Qaro zulfing **firoqida** parishon **roʻzqʻorim** bor,
Yuzungdin **ishtiyoqida** ne sabr-u ne **qarorim** bor

TAJOHULI ORIF-bilib turib bilmaslikka olish

Bunda ritorik so'roq gaplardan foydalanish.

Nahot shuncha ma'sum, shuncha pok

Sevishmoqda alam bor shuncha?

TAKRIR-takrorlash

Ko'ni bo'l, **ko'ni** qil, atin **ko'ni**,

Ko'ni teyu bilsun haloyiq seni

TALMEH---"arabcha" so'z bo'lib, chaqmoq chaqishi, nazar solish degan ma'noni anglatadi.

She'riyatda TARIXIY VOQEA VA SHAXSLAR, ADABIY QAHRAMONLAR VA JOYLARGA ishora qilish;

AYYUB-payg'ambarlardan biri, badanini yara bosib qurtlagan bo'lsaham chidagan xudoning inoyati bilan tuzalgan. SABR TIMSOLI

AYYUB sifat balosiga sobir bo'lay

Har ne qilsang oshiq qilg'il parvardigor (YASSAVIY)

ISO-payg'ambar. Dami (nafasi) bilan o'liklarni tiriltira olishi, og'ir bemorlarni davolay olishi kabi xususiyatlar bu nomning adabiyotda faol qo'llanishiga sabab bo'lgan. Iso a.s nomi o'rniga MASIH, RUHULLOH nomlari ham faol qo'llanadi.

Labing qonimga to'karga tashnalabdur

Dami ISO-yu o'lturmak ajabtur. (ATOIY)

Labidin kom topdim, ey MASIHO, urmag'il damkim

Mani bir so'z ila tirguzdi ul la'li shakarxandim. (AMIRIY)

Tabassum qilsa la'ling jori bag'ishlar

Magar Isoyi RUHULLOH sen-sen (ATOIY)

LUQMON-Qur'onda nomi zikr etilgan, mohir tabib va hakim(donishmand) Luqmoni hakim nomi bilan keng qo'llanadi.

Ko'nglidur oshuftan lavhu tarab nafsu havo

Tilsa zillat xanjari bag'rini LUQMON istamas (HAMZA)

MUSO- PAYG'AMBAR Xudo bilan so'zlashgani uchun KALIMULLOH unvonini olgan. Ko'pinch adabiyotda uning KALIMULLOH ekani, SHUBON (cho'pon) ekani, TAYOG'i yodga olinadi. Adabiyotda MUSO a.s timsoli fir'avn timsoliga zid qo'yilib, TAZOD san'ati uchun ham asos bo'ladi.

Raiyat qo'y erur, sulton anga cho'pon yo bo'ri

Bo'ri o'lga-yu qo'y tingay, chu MUSOTEK SHUBON keldi (SAKKOKIY)

Fir'avn, Qorun shayton so'zin mahkam tutdi,

Shul sababdan yer yorildi-ani yutdi

MUSO KALIM nasih bo'lib so'zlar aytdi,

Quloq tutmay ul ikkisi bo'ldi murdor (YASSAVIY)

NUH-payg'ambar. Rivoyatlarda aytilishicha, yer yuzini suv bosganda barcha jonzotlardan o'z kemasiga bir juftdan olib, ularni asrab qolgan ekan. She'riyatda uning uzoq (1000 yildan ziyod) umr ko'rgani ko'otilga olinadi.

**NUHki ming yil yashab ko'rdi bir to'fon,
Men Nuh bo'lmasam ham ming to'fon ko'rdim. (P.MAHMUD)**

SULAYMON-payg'ambar DOVUD a.s ning 12 farzandidan kenjasi va valiahdi. Ulkan va kuchli saltanatga egaligi, shamolning, jin va devlarning unga bo'ysundirib berilgaligi, uchar taxtga va qudratli uzukka egaligi she'riyatda SULAYMON so'zining qo'llanishiga asos bo'lgan. Ayniqsa, "TAXTI SULAYMON" iborasi ko'p qo'llanadi. RABG'UZIYning yozishicha, "TAXTI BIR YIG'OGH YER ICHINDA ERDI. UL TAXTINI OLTUN, KUMUSH BIRLA QILMISH ERDI"

Qolaversa, Sulaymon nomi HUDHUD, CHUMOLI(MANZARA), BILQIS VA OSAF nomlari tilga olinganda ham eslanadiki, buni xalq orasida mashhur bo'lgan rivoyatlarning ta'siri deyish mumkin.

**SULAYMON saltanatlik podshosen
Masih anfoslik, YUSUF liqosen (XORAZMIY)**

**Ko'ngullar Ka'basin bir-bir ziyorat ayladim, emdi
Tavofi Makka-yu TAXTISULAYMON etmasam bo'lmas (NODIRA)**

**Marhabo, ey payki sulton, marhabo,
HUDHUDI MULIK SULAYMON, marhabo. (NODIRA)**

XIZR-Qur'onda nomi zikr etilgan, ABADIY TIRIKLIK TIMSOLI. *Obi hayvon, obi hayot, ziloli XIZR, chashmayi Xizr* nomlari bilan yuritiladigan tiriklik suvini topgan zot sifatida tilga olinadi. Ko'pincha yor labining obi hayotga qiyosi o'rinlarida tilga olinadi.

**Shakr urning naboti XIZRga o'xshar
Oyg'ing kimki o'psa, mangu yashar (XORAZMIY)**

YA'QUB-Payg'ambar. G'AM VA AYRILIQ TIMSOLI. Sevikli o'g'li YUSUFning hajrida uzoq vaqt g'am chekib yig'laydi, hatto ko'zlari ham ko'rmay qoladi. Uning g'am-qayg'u bilan o'tkazgan onalariga nisbatan adabiyotda **BAYT UL-HAZAN (G'AM UYI)** iborasi qo'llanadi.

**Solib borma meni ey YUSUFI husn,
Bukun YA'QUBTEK BAYT UL-HAZANDA**

YUSUF-Payg'ambar. GO'ZALLIK TIMSOLI. She'riyatda ko'pincha ZULAYHO yoki YA'QUB nomlari bilan birga qo'llanadi. KAN'Onda tug'ilib, MISR azizi(hukmdori) bo'lgani uchun **YUSUF KAN'ON, YUSUFI MISRIY** nomlari bilan ham yuritiladi. Ba'zi o'rinlarda tushlarni ta'bir etish xususiyati ham eslanadi.

**YUSUF kibi shirindirur asru harokating
Sen MISR nabot-u shakarig'a ne bo'lursan (LUTFIY)**

**Husn ichra aql aylab sanga KAN'ON SHAHI tashbehini
Ko'nglum qilib ruxsoringa gardun mahi tashbehini (MUNIS)**

**Qachon ul YUSUFI MISRIYda bu husn-u malohat bor
Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik (FURQAT)**

ZIKRIYO(ZAKARIYO)-Payg'ambar

Kofirlar zulmidan qochib daraxt ichiga yashiringan va kofirlar uni daraxt bilan arralaganida ham xudoning nomini tildan qo'ymagan.

Xos ishqingni ko'rsat manga shokir bo'lay

Arra ursa, ZIKRIYOdek zokir bo'lay (YASSAVIY)

TAMSIL-misol keltirish

Umri jovid istasang, fard o'lki, bo'ston hizridur,
Sarvkim, da'b ayladi ozodalig'birla maosh

TANOSUB-sanash

Baytda bir-biriga bog'liq, bir-biriga yaqin ma'noli so'zlarni qo'llash.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni

Ayoqing qanda bo'lsa, boshim anda

TARSE'-ipga marjon terish

She'rdagi birinchi misra so'zlari bilan ikkinchi misra so'zlarining bir-biriga ohangdosh, qofiyadosh bo'lishi.

Yod etmas emish kishini g'urbatda,

Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi

TARDI AKS-teskari qilib takrorlash

Yuz uza ikki nargising, vah, ne balo qaro, dedim,
Ko'nglunu joning olg'uchi ikki qaro balo, dedi.

TAZOD-zidlantirish

Baytda antonimlardan foydalanish.

Podshoh yo'qlatsalar nogoh, qado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring.

TASHBEH---TASHBIH---O'XSHATISH san'ati. Ikki narsa va tushunchani bir-biriga o'xshatib, qiyoslab badiiyat yaratish tashbehning asosidir.

YUZ(LIQQ, RO'Y, RUXSOR...)-gul,oy quyosh, jinon bog'i arg'uvon ravzayi rizvon, subhi sodiq(ATOYI TASHBEHI), charog', ya'ni chiroq (LUTFIY TASHBEHI), xokandoz(ATOYI TASHBEHI), Mus'haf, yani Qur'on(ATOYI TASHBEHI) Rum ahli(SAKKOKIY TASHBEHI)

(Oshiqning sarg'aygan yuzi ZA'FAR, YAPROQ, XAZON YAPROG'I, OLTIN, QAHRABOga o'xshatiladi)

MISOLLAR:

OY YUZung nazzorasidin qolur ermish benasib,

Oning uchun kechqurun har kunda yig'lar qon quyosh (GADOIY)

*Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy,
Erur yuzi QUYOSHtek olamoroy. (XORAZMIY)*

*Agar RUM AHLIna zulfung habashning askarin solsa,
Ko'ngul ilgindaul soat topilmas hech omon, ey jon (SAKKOKIY)*

*Xazon yaprog' yanglig'GUL YUZUNG hajrida sarg'aydim,
Ko'rub, rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim (BOBUR)*

*Nogah ko'rubon mahvi jamoling o'la qoldim
OYDEK YUZingga boqtimu hayron o'la qoldim (MASHRAB)*

YANOQ(YANGOQ, ENG)-arg'uvon, Xalilulloh nori(XORAZMIY TASHBEHI)

MISOLLAR:

*Soching sunbul qading sarv-u sanobar
Ko'zung nargis, yangog'ing ARG'UVONDUR (ATOIY)*

*Xiraddin ozdurur g'amzanh xumori
Yangoqlaring XALILULLOH NORI (XORAZMIY)*

*KO'Z-"SOD" harfi, nargis jodu(gar) g'izol, ohu, axtar(yulduz), qaroqchi, kofir, xunxor,
hindu(qora), habashning askari, tarozu(LUTFIY TASHBEHI), yoy tortishayotgan 2 hindu bolasi(FURQAT
TASHBEHI)*

*(IZOH: she'riyatda KOFIR, QAROQCHI, XUNXOR, JODUGAR, HINDU kabilarko'proq ko'zning
belgilari sifatida qaraladi,)*

MISOLLAR:

*Yuz uza ikki NARGISing vah, ne balo qaro, dedim
Ko'nglung-u joning olg'uvchi ikkiqaro balo, dedi (OGAHIY)*

*Kokulung anbardurur jon ichida jonon qiz,
Ko'zlaring AXTARDurur yuzi mohi tobon qiz (MASHRAB)*

*QAROQCHI ko'zlarin kim kimko'rsa aytur:
"Ajab, ayyori Turkistonmidur bu?"*

*KOFIR ko'zungning xizmatin ixlos qilmish ajal
Xanjar mijangdin aylabon el bag'rini tilmish ajal (MUNIS)*

KIPRIK(MUJGON)-boshqoq(paykon), o'q(xadang, novak, nayza, supurgi(ATOYI TASHBEHI)

MISOLLAR:

*G'uncha sevunub to'nig'a sig'mas
O'xshatsam O'QING BASHOQI birla (ATOYI)*

*Yo'q qutulmoqlik manga ul ofati jon dastidin
Qasdima qoshlar kamon payvasta mujgonlar XADANG (FURQAT)*

QOSH(ABRO')-hilol, kamon, yo (1. Yoy;

2. Yo harfi) nun, mehrob, qilich

MISOLLAR:

Qoshlari YO ko'zlari xunxordin ayrilmisham

Bir pari tal'at shakarguftondin ayrilmisham (MASHRAB)

El sajda qilur masjid devorig'a har dam

O'lguncha bosh olmon qoshi MEHROBinga qulman (UVAYSIY)

G'araz iydi visolingdur ko'ngulg'a ey HILOL abro'

Yuzingni oyig'a jonimni qurbon etmasam bo'lmas (NODIRA)

SOCH(GISU)- sunbul, chin lashkari, laylat ul-qadr (ATOYI TASHBEHI)

MISOLLAR:

Ne tong, Ogahiy nazar aylamas esa bog' sari nigorining

Sochi SUNBUL-U ko'zi nargis-u labi g'uncha-yu yuzi loladur (OGAHIYO)

ZULF,KOKIL-anbar, rayhon, mushk

MISOLLAR:

Farqi uza zulfi ANBAR olud

Gulfom o'tig'a anbarin dud (NAVOIY)

Yosamin tan qomati sarvi ravon

Zulfi jannat bog'ining RAYHONidur (SAYFI SAROYI)

OG'IZ (DAHAN)-G'UNCHA, SHAKAR

MISOLLAR:

Ey,mening nozik niholim, yori jonim, qaydasan.

Bu ko'ngul bo'stonida G'UNCHA dahonim, qaydasan? (MASHRAB)

Ko'ngul SHAKAR BIKIN og'zing ko'rub adam bo'ldi

Ayitmading bir og'iz: Ey faqiri hech kora (SAKKOKIY)

LAB(ERN, IRIN, DUDOQ)-qizillikda la'l,yoqut, aqiq; **shirinlikda** shahd-u shakar, Misr naboti; **shifobaxshlikda** obi hayot, Kavsar, suyi Xizr

MISOLLAR:

Buti siymbarim, bizni unutma,

Dudoqi SHAKARIM, bizni unutma (GADOIY)

Erning AQIQI garchi jahonda yagonadur,

Chehram mangizli ham yana bi qahrabo qani? (SAKKOKIY)

Tamanno qilg'ali LA'LINGNI ko'nglum,

Kishi bilmas anikim, qoldi qanda (ATOIY)

Bir zarra chuchuk so'zni Atoiydin ayarsen,

Ey lablari SHAHD-U SHAKARIM netti ne bo'ldi? (ATOIY)

Shakar erna NOBATI XIZRa o'xshar
Oyog'ing kimki o'psa mangu yashar (XORAZMIY)

XAT(ayollar labi ustidagi mayin tuklar)- binafsha, rayhon, gulshan
MISOLLAR:

Gul uza rayhonmu yo mushkin qoshingni soyasi,
Yo xatingni sabzasidur GULSHANI ruxsor aro. (AMIRIY)

Xatingdur SABZA RAYHONIY, labing dur kavsari adni,
Xading-bo'ston, yuzung-gul, misli gulzori chaman nozik (UVAYSIY)

XOL(MENG)-**qoralikda** hindu; oyat(ATIY tashbehi), lolaning ko'ngli (XORAZMIY tashbehi), arab harflaridagi nuqtalar

MISOLLAR:

Kular oy husnunga gultek engingiz,
Qarodur LOLA KO'NGLITEK mengingiz (XORAZMIY)

TISH-dur, (DURRI ADAN) inju,

MISOLLAR:

Qading nozuk, qoshing nozuk, ko'zung nozuk, labing nozuk
Tiling nozuk, so'zung nozuk, tishing DURRI ADAN nozuk (UVAYSIY)

Ey orazi shams-u qamarim, netti ne bo'ldi?
Vey, tishlari DURRI GAVHARIM, netti, ne bo'ldi?
(ATOIY)

QAD(QOMAT, BO'Y)-sarv, shamshod, sanuvbar, (sanobar) alif, nihol(oshiqning qaddi **DOL** yoki **YO**)

MISOLLAR:

UI ALIFdek qomating hasrati
DOL yanglig' ayladi qaddim duto (FURQAT)

Yuzu gul-u , qadi SHAMSHOD, ko'zlari nargis,
Bahori yosumanimni tushimda ko'rsam edi. (NODIRA)

Turfa xolinmu deyin, qaddi NIHOLinmu deyin,
Moviy ko'ylak uzra gulrangi qabosinmu deyin?! (NAVOIY)

Soching sunbul, qading SARV-U SANOBAR
Ko'zung nargis, yangog'ing arg'uvondir (ATOIY)

BEL-qil

MISOLLAR:

Bo'yung sarv sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (XORAZMIY)

RAFTOR(yurish)- kabki dariy(tog' kakligi)

MISOLLAR:

Malak yo hur, bilmom yo parisan?

Bu raftor ila KABKI DARIYSAN?

G'AMZA(ishva, ko'zni nozli suzish)-qilich, xanjar; o'q, paykon; ko'pincha g'amza o'qi, tiyri g'amza iboralari tarkibida qo'llanadi.

MISOLLAR:

Gul ermas gulshan ahlin ko'zlari qon ila to'ldirmush,

Tegib G'AMZANG O'QI nechunki har yondin qaroshibdur (UVAYSIY)

Ko'zimning ravshani, boshimning toji,

G'amzasi PAYKONIM qaydan bo'lasan? (MALIKAYI AYYOR)

TASHBEH 4 UZVDAN TASHKIL TOPADI.

- 1) MUSHABBAH**-o'xshatilgan narsa
- 2) MUSHABBAHUN BIHI**-o'xshagan narsa
- 3) VAJHI SHABOH**-o'xshatish sababi
- 4) ODATI TASHBEH**-o'xshatish vositasi (-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -vosh, misli, kabi, go'yo, xuddi)

Ulug'bek odillikda quyosh kabidir

Ulug'bek	<i>Mushabbah</i>
Odillikda	<i>Vajhi shaboh</i>
Quyosh	<i>Mushabbahun bihi</i>
Kabi	<i>Odati tashbeh</i>

ZULQOFIYATAYN-baytda ikki qofiyaning kelishi

Ko'zing ne balo qaro bo'lubtur

Ki jonga qaro balo bo'lubtur

ZULQAVOFE'-baytda uch va undan ortiq qofiya kelishi.

Bu yo'lda yo'ldasa Nizomiy yo'lim

Qo'ldasa Xusrav bila Jomiy qo'lim